

## 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


### **RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **10563,1** mlrd.so'mni, o'sish **4,1%** ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **112,4 %** ni tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **-18,7 %** ni tashkil etdi
- Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni - **1796** birlikni tashkil etadi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 10563,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 2,7 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashning 17,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 13,7 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 52,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

### ***2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi***



## **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 328,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 36,7 % ga, gaz kondensati 6,9 % ga va tabiiy gaz 6,5 % ga oshganligini kuzatish mumkin.



### **Yanvar - dekabr oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Ohoktosh, t</b> 	187225,0	136931,3	136,7 
<b>Gaz kondensati, ming t.</b> 	175,7	164,5	106,9 
<b>Tabiiy gaz, mln.kub.m</b> 	6125,5	5753,3	106,5 


### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9589,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,8 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni o'rta- yuqori texnologiyali 73,0 %, o'rta-quyi texnologiyali 3,9 va quyi texnologiyali 22,9 tashkil etdi.

#### **2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi býoyicha Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan kislород ishlab chiqarish 36,9 %, tozalangan guruch 14,3 % ga, aroq 10,2 % ga, paxtadan iyigirilgan ip 0,9 % ga, karbonat dinatriya 9,5 % ga, yumshoq bug'doy uni 7,9% ga oshganligini va paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan), bug'doy noni va makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik  
sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Paxta tolasi, t</b> 	51548,0	64324,0	80,1 
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), t</b> 	11449,1	14922,9	76,7 
<b>Tozalangan guruch, t</b> 	4757,1	4162,1	114,3 
<b>Yumshoq bug'doy uni, t</b> 	79201,3	73427,5	107,9 
<b>Bug'doy noni, t</b> 	2566,6	3220,3	79,7 
<b>Makaron mahsuloti, t</b> 	2955,6	4747,4	62,3 
<b>Yirik shoxli qoramollar uchin tayyor ozuqa, t</b> 	38984,1	38595,3	101,0 
<b>Aroq, ming.l. 100% spirit</b> 	4430,8	4020,5	110,2 

Paxtadan iygirilgan ip, t	3667,2	3633,7	100,9	
Kislород, ming.m3	10,7	7,8	136,9	
Karbonat dinatriya, ming.t.	188,6	172,2	109,5	
Polietilen, t.	352551,9	377853,6	93,3	
Polipropilen, t.	93208,1	94166,5	99,0	

### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 526,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,0 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida issiqlik energiyasini ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,3 %, ga elektr energiyani ishlab chiqarish 2,6 %, ga kamayishi kuzatildi.



## ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 119,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 78,7 %, ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 26,4 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 34,6 % ga oshganligi kuzatildi.

### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1665,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,4 %, ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 15,8 % ni tashkil etdi.

### ***2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 33,6 % dan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 39,8 % ga oshishi kuzatilmogda.

### ***Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %***



### ***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi***


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 72,1 % dan ulushini), Taxiatosh (4,5 %), Xo'jayli (3,2 %), Amudaryo (2,7 %), Mo'ynoq (2,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajminig eng katta qismi Nukus shahar (jami iste'mol tovarlari hajmining 27,0 %), Xo'jayli (11,1%), Qo'ng'iroq (9,0 %), To'rtko'l (8,9 %), Amudaryo (7,5 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

Hududlarnig ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Qarao'zak (128,4 %), Shumanay (127,1 %), Mo'ynoq (124,6 %), Ellikqal'a (122,8 %) va Nukus (121,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga Qonliko'l (148,7 %), Ellikqal'a (142,0 %), Taxiatosh (136,9 %), Shumanay (135,1 %) va Kegeyli (130,6 %) tumanlarida iste'mol tovarlari sezilarli darajada oshdi.


**2018 yilning yanvar- dekabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab  
chiqarish va iste'mol tovarlarning o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning tegishli davriqa nisbatan, foizda)**



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqlananishi tahlili Nukus shahrida (24345,4 ming so'm), Mo'ynoq (8749,0 ming so'm), Taxiatosh (6533,4 ming so'm) tumanlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (5691,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 897,5 ming.so'm bo'lgan holda Xo'jayli (1535,9 ming.so'm), Nukus sh. (1438,3 ming.so'm), Qo'ng'iroq (1176,1 ming.so'm), Taxiatosh (1095,7 ming.so'm), Qarao'zak (942,1 ming.so'm) ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol tovarlarning  
o'sish sur'atlari**




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Qara'zak (2017-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 127,2 %), Shumanay (126,0 %), Mo'ynoq(123,0), Ellikqal'a (120,4 %), Nukus (119,5 %) tumanlarida kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,0 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 18,7 % tashkil etmoqda.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nukus (99.9 %), Taxtako'pir va Qorao'zak (99.98 %) tumanlarida kuzatildi.



Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (7,0 %), Taxiatosh (8,2 %), Mo'ynoq (10,0 %) va Qonliko'l (31,4%) tumanlarida kuzatildi.

**2018 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi  
qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylastirish.**

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiyallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z tasirini kursatti, mazkur dastur doyirasida 3952,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib 386,2 mln. AQSH dollori mig'dorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

Mahalliylashtirilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7

***2018 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylastirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari***




2018 yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmining 99,6 foizi Nukus sh. (3937,3 mlrd. so'm) korxonalariga to'g'ri keladi.

***Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.***

Bugungi kunda respublikada 1796 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 501 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarning qariyib 67 % Nukus shahri, Amudaryo, Taxiatosh, Qo'ngiroq, Qorao'zak, To'rtko'l va Beruniy tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 yanvar holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik**



**Sanoat statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul:**

**Gulmurzaeva T.**

**Aloqa telefoni: (0371) 230-82-09**